

JAHON ADABIYOTIDA ALISHER NAVOIY IJODIGA QARASHLAR.

Ravshanova Marjona Samariddin

qizi

marjonaravshanova65@gmail.comTermiz iqtisodiyot va servis universiteti
pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya : Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodining jahon adabiy muhitida qanday talqin qilinayotgani yoritildi. Gʻarb va Sharq olimlarning ilmiy yondashuvlari , tarjimalar , zamonaviy adabiyotshunoslikdagi baholar tahlil qilinadi. Maqola asosan xalqaro miqyosda Navoiy ijodining oʻrganilishi va eʼtirof etilishi darajasini aniqlashga yaratilgan.

Kirish soʻzlar : Alisher Navoiy, jahon adabiyoti , sharqshunoslik, tarjima, adabiy meros, ilmiy baho.

Взгляды на творчество Алишера Навои в мировой литературе.

Аннотация: В статье рассматривается, как творчество великого мыслителя и поэта Алишера Навои интерпретируется в мировой литературной среде. Анализируются научные подходы западных и восточных ученых, переводы и оценки в современном литературоведении. Статья в первую очередь призвана определить уровень изученности и признания творчества Навои в международном масштабе.

Ключевые слова: Алишер Навои, мировая литература, востоковедение, перевод, литературное наследие, научная оценка.

Views on the work of Alisher Navoi in world literature.

Abstract: This article examines how the work of the great thinker and poet Alisher Navoi is interpreted in the world literary environment. The scientific approaches of Western and Eastern scholars, translations, and assessments in modern

literary criticism are analyzed. The article is mainly designed to determine the level of study and recognition of Navoi's work on an international scale.

Keywords: Alisher Navoi, world literature, oriental studies, translation, literary heritage, scientific assessment.

Kirish. Alisher Navoiy (1441-1501) turkiy adabiyotning asoschisi sifatida Sharq madaniyatida beqiyos iz qoldirgan ijodkordir . Uning ilm - fan, adabiyot, ma'naviyat sohasidagi xizmatlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Biroq uning ijodiga jahon miqyosida berilgan baholar , turli adabiy maktablarda talqin etilishi alohida tadqiqot mavzusidir . Ushbu maqolada Navoiy ijodining xalqaro adabiyotshunoslikdagi o'rni, unga nisbatan bildirgan qarashlar va zamonaviy baholashlar tahlili etiladi.

Adabiyotlar tahlili: Alisher Navoiy ijodining G'arbda o'rganilishi. G'arbda Navoiy ijodiga e'tibor XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kuchaygan . Nemis sharqshunos Jozef fon Homer - Purgshtal ilmiy muhitga tanishtirgan olimlardan biri bo'ldi. ¹²Navoiy ijodini "Sharqning Dante Aligerisi" deb atagan. Keyinchalik rus sharqshunoslari , xususan E.E. Bertels Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan fundamental ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Bertelsning " Navoiy poetikasi" nomli asarlari ilmiy adabiyotida muhim o'rin egallaydi . G'arbiy Yevropa va AQSH dagi bazi universitetlarda (masalan, Oksford, Garvard, Sarbonna) Navoiy ijodini turkiy adabiyot namunasi sifatida o'rgatish amaliyoti mavjud. Annette Susannah Beveridge (Angliya) Navoiyning "Lison ut-Tayr" asarini ingliz tiliga tarjima qilish orqali G'arbg tasavvuf va ramziy tafakkurning chuqur namunalari tanishtirgan. Reynold Alleyne Nicholson va Edward Granville Browne kabi ingliz sharqshunoslari Navoiy asarlarini forsiy-turkiy adabiy uyg'unlik timsoli sifatida ko'rishgan. Navoiy ijodining universal qadriyatlari. Navoiy asarlaridagi gumanistik g'oyalar – adolat, muhabbat, ilm-ma'rifat, poklik, sabr-toqat kabi tamoyillar jahon madaniyati uchun umumiy qadriyatlar bo'lib, ularni boshqa adabiy maktablar bilan bog'laydi. U tasvirlagan qahramonlar (Farhod,

¹ . Bertels, E. E. Alisher Navoiy va uning davri. Moskva: Nauka, 1968

² . Nicholson, R. A. The Mystics of Islam. London: Routledge, 1914.

Layli, Majnun, Bahrom) insoniylik idealiga yaqinlashish timsolidir. Alisher Navoiy nafaqat turkiy adabiyotning ulug‘ namoyandasi, balki jahon adabiy tafakkurining porloq yulduzidir. Uning asarlaridagi falsafiy teranlik va badiiy go‘zallik hali-hanuz butun dunyo adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Navoiyga bo‘lgan e‘tibor – bu Sharq adabiy merosiga, insoniyat ma‘naviyatiga bo‘lgan e‘tibordir.

Asosiy qism: Navoiy asarlarini tarjimalari va talqin. Navoiy asarlari arab, fors, rus, ingliz, fransuz, nemis, koreys va boshqa tillarga tarjima qilingan. Eng ko‘p tarjima qilingan asarlari - “ Xamsa”, “Lison ut tayr”, “ Munajat” , “ Mahbub ul - qulub” , va g‘azallardir. Tarjimalarda Navoiy tilining nafisligi, ruhiy chuqurligi va falsafiy g‘oyalari saqlanib qolgan hollarda ham, ba‘zi ma‘nolar yo‘qolgan holatlari kuzatiladi. Shuning uchun bazi g‘arb olimlari tarjimonlarning sifatini tanqidiy yondashuv bilan baholaydilar. Biroq umumiy xulosaga ko‘ra, Navoiy ijodi turkiy ruhiyati jahon maydoniga olib chiqqan noyob hodisa sifatida etirof etiladi. Zamonaviy tadqiqotchilar Navoiy ijodini postkolonial , madaniy, tilshunoslik, interakstual yondashuvlar orqali tahlil qilishmoqda. Masalan E.Subxankulov, R. Ergashev, A. Hikmatov singari o‘zbek olimlari bilan bir qatorda, ingliz adabiyotshunos R. Nicholson ham Navoiy asarlaridagi ilohiy muhabbat va ma‘naviy kamolot narsalariga e‘tibor qaratgan. Bundan tashqari, YUNESKO tomonidan 1991 yilda Alisher Navoiy 550 yiligi keng nishonlanishi - uning jahon miqyosidagi tarixiy - madaniy ahamiyatini tasdiqlovchi dalildir. Alisher Navoiy Markaziy Osiyo madaniyati, turkiy tillar taraqqiyoti va tasavvuf falsafasi bo‘yicha muhim shaxs sifatida G‘arb adabiy tanqidida o‘rganilgan. G‘arbda Navoiy asarlari ko‘p hollarda madaniyatlararo aloqalar va uyg‘onish davri tafakkuri doirasida tahlil qilingan. Bugungi kunda Navoiy ijodi UNESCO tomonidan e‘tirof etilgan, asarlari ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilinmoqda. Uning adabiy merosi — insonparvarlik, axloqiy poklik, bilimga intilish, muhabbat va sadoqat kabi g‘oyalar asosida baholanmoqda. Navoiy turkiy tilda yuksak badiiy ifoda yaratgan birinchi muallif sifatida tilshunos va adabiyotshunoslar tomonidan qadrlangan. So‘nggi yillarda jahon ilmiy adabiyotida Alisher Navoiy ijodi XXI asr gumanistik qadriyatlari bilan uyg‘un tarzda o‘rganilmoqda. Uning ijodida inson erkinligi, axloq, sevgi va

donolik g'oyalari jahon adabiyoti kontekstida muhim mavzu sifatida qaralmoqda. Alisher Navoiy o'zbek xalqining ming yilliklar bilan bo'ylashadigan bebaho qadriyatlari va yozma yodgorliklarini yuksak cho'qqiga chiqargan buyuk tafakkur egasidir. Uning avlodlarga qoldirgan merosi bashariyat ma'naviyatining o'q tomirlaridan. Global taraqqiyotning hozirgi bosqichida hazrat asarlarining jamiyat ma'naviy yuksalishidagi o'rni va qadri tobora oshib borayotganligi ochiq ko'rinmoqda. Dunyoning yetakchi aql markazlarida Navoiy ijodi yangicha ilmiy qarashlar va yondashuvlar asosida tadqiq va targ'ib etilmoqda. So'z mulkining sultoni barcha zamonlar va barcha makonlar mutafakkiri sifatida dunyo xalqlari tafakkuri rivojida favqulotda o'rin tutadi. Dunyoning yetakchi sharqshunoslik markazlarida asrlar mobaynida shoir merosi chuqur o'rganilib kelinadi. Uning umumbashariy g'oyalari, xususan, bag'rikenglik, mehr-oqibat, ogohlik, elsevarlik, xalqlar do'stligi singari qadriyatlarga yo'g'rilgan fikrlari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Jahon adabiyoti titanlarini eng qisqa ro'yxatda ko'z o'ngimizda tizadiganbo'lsak, bular –Li Bo, Homer, Evriped, Rudakiy, Firdavsiy, Dante Aligyeri, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Gnjaviy, Alisher Navoiy, Vilyam Shekspir, Iohani Volfgang Gyote, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Onre de Balzak, Jek Londonning hamisha porloq siymolari o'z ijod olamlari bilan gavdalandilar. Chunki ularning har biri o'z xalqlari va bashariyat uchun adabiy dahodirlar. Eng nozik yana bir masala iste'dod darajasi bo'lib, Navoiygacha va hozirgachaham Alisher Navoiy siymosiga nasib etgan bu fazilat pog'onasiga hech kim yuksala olmadi. Uning adabiy mahorati sirlari hali hozirgacha endi ochila boshlagan qo'riq bo'lib turibdi. Navoiy ijodi abadiyatning bosh siri -uning asarlarida kuylangan umumbashariy o'lmas va qarimas g'oyalar: insonparvarlik, ahloqlilik, aqliy va hissiy komillikdir. O'zbek millatining baxti borki, uning Alisher Navoiysi bor. Akademik Konrad ana shu ma'noda, ya'ni Navoiy kelib chiqqan millatning baxtiyorligini alohida qayd etgan edi. Chet ellik taqdiqotchilardan biri A. Kurella Navoiyning "Farhod va Shirin dostonining o'ziga tortgan jihatlarini sanab o'tadi."Asarning

³tarjimonlarni o'ziga tortgan jihatidan biri tabiat manzaralari, ikkinchidan Navoiyning usta peyzaj yaratish mahorati, uchinchidan tabiat fasllaridagi tasviridagi ranglarning xilma-xilligi va ularning har birini faslga mos jilolanishi, to'rtinchidan, shoirning radif, hojib kabi bir talay badiiy san'atlardan foydalanganligidir", deydi. N.S. Banarli Navoiy ijodining yuqori baholab, shunday so'zlarni aytib o'tadi "Navoiy o'z davri va undan so'ng ham ijodkorlar uchun ideal bo'lib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi". Alisher Navoiyning go'zallikni tarannum etgan asarlari, umumbashariy g'oyalari jahon adabiyoti tarixidagi ulug'siymolarning ijod namunalari bilan hamohangdir. Navoiy uyg'onish davrining yirik namoyondasidir. Uyg'onishdavri VIII-IX asrlarda Xitoyda boshlanib, IX-XV asrlarda O'rta Osiyo, Eron, Hindistonning bir qismida davom etgani va XVI-XIX asrlarda Yevropada nihoyasiga yetkanligi hech birimizga sir emas. Uyg'onish davrining buyuk vakillari ijodidaqandaydir umumiylikni ko'rish mumkin. V.M. Jirmunskiy "Alisher Navoiyningulkan figurasijahon adabiyotidan alohida ajralib qolgan emas. O'zbek adabiyotining buyuk asoschisining ijodi bevosita g'arbdagi hamfikrlarining uyg'onish davri shoir va mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari bilan qo'shilib ketadi"-deb yozadi. Ulug'shoir va mutafakkir Alisher Navoiy -Sharq Renessansining yirik namoyondasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiyzabon xalqlar madaniy va ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutadigan yorqin shaxsdir. O'z asarlarida ma'naviy poklik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlikni kuylab, o'z avlodlariga buyuk adabiy-falsafiy va ilmiy merosqoldirdi. Uyg'onish davri turli joylarda va vaqtlarda o'ziga xos tarzda kechgani bilan barcha xalqlar madaniyati va adabiyotida o'xshash tomonlarni ham vujudga keltirgan.

Xulosa. Alisher Navoiy ijodiga jahon adabiyotida berilgan baholar va qarashlar uning asarlari xalqaro miqyosda katta ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. U o'zining

³. UNESCO. Alisher Navoiy's 550th Anniversary Commemoration Documents. Paris: UNESCO Publications, 1991.

boy ma'naviy merosi, gumanistik g'oyalari, badiiy uslubining yuksakligi bilan nafaqat Sharq, balki G'arb adabiyotshunoslari e'tiborini ham tortgan. Alisher Navoiyning odaamiylik, ezgulik, poklik va halollikni, yurtparvarlik va tinchlikni tarannum etgan asarlari bugungi kunda jahon miqiyosida adabiyot muxlislarining mehri va ardog'idadair. Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini u kishidek teran ifoda etgan shaxs jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Buyuk shoir o'z asarlarida insoniy muhabbat, mehr-u vafo va nazokatni yonib, hassoslik bilan kuylagan. Turkiy tilda ijod qilgan shoir sifatida u adabiy til imkoniyatlarini kengaytirgan va mumtoz adabiyotning taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Shunday qilib, Alisher

Navoiy asarlari bugungi kunda ham jahon madaniy merosining ajralmas qismi sifatida o'rganilmoqda va qadrlanmoqda.⁴

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bertels, E. E. Alisher Navoiy va uning davri. Moskva: Nauka, 1968.
2. Ergashev, R. Navoiy va jahon adabiyoti. Toshkent: Fan, 2001.
3. Hikmatov, A. Sharq mumtoz adabiyoti va Navoiy merosi. Toshkent: Akademnashr, 2015.
4. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Subxankulova, E. Alisher Navoiy asarlari tarjimalarining lingvistik xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
6. Hammer-Purgstall, J. von. Geschichte der schönen Redekünste Persiens [Fors adabiyoti tarixi]. Wien: Hof- und Staatsdruckerei, 1818.
7. Nicholson, R. A. The Mystics of Islam. London: Routledge, 1914.
8. UNESCO. Alisher Navoiy's 550th Anniversary Commemoration Documents. Paris: UNESCO Publications, 1991.

⁴ Ergashev, R. Navoiy va jahon adabiyoti. Toshkent: Fan, 2001.

9. Qayumov, A. Alisher Navoiy — buyuk shoir va mutafakkir. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1992.

10. Ismatullayev, B. Alisher Navoiy: adabiy-estetik qarashlari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2018⁵